

**O'ZBEK BASTAKORLIK IJODIYOTIGA, ULKAN HISSALARINI
QO'SHGAN, ULUG' USTOZLAR YO'LLARINI, MUNOSIB DAVOM
ETTIRGAN, FATTOHXON MAMADALIYEVNING O'LMAS IJODIY
MEROSI**

**Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
“Vokal va cholg'u ijrochiligi pedagoglari tayyorlash” kafedrası o'qituvchisi
Xushnud Ismatov.**

**THE IMMORTAL CREATIVE LEGACY OF FATTOHKHON
MAMADALIYEV, WHO MADE GREAT CONTRIBUTIONS TO UZBEK
MUSICAL COMPOSITION AND HONORABLY CONTINUED THE PATH
OF GREAT MASTERS**

**Khushnud Ismatov, Lecturer at the Department of “Training of Vocal and
Instrumental Performance Pedagogues” of the Yunus Rajabiy Uzbek National
Institute of Musical Art**

Annotatsiya:

O'zbek bastakorlik ijodiyoti: Maqomlarimiz bo'lgan “Shashmaqom”, “Xorazm maqomlari”, “Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari” asosida, shakllanganligi, bu maqolada o'z ilmiy asosini topadi. Chunki dastavval XIX asr oxiri XX asr boshlarida maqomlarimiz asosida, o'z bastakorlik faoliyatini boshlagan Ota Jalol Nosirov, Ota Jalolning shogirdlari Hoji Abdulaziz Rasulovlar ijodididagi maqomlarning namudlaridan masalan: Ushshoq namudi, Uzzol namudi, Avji Zebopari, Avji Turk, Avji Muhayyari Chorgoh kabi ko'plab maqomlarimiz tarkibidagi ashulalarning ajralmas qismi bo'lgan namudlardan foydalanib, o'z bastakorlik ijod maktablarini yaratishgan. Bu ulug' ustozlar izidan borgan, Buyuk Hofiz Fattohxon Mamadaliyev ham o'z bastakorlik ijod namunalari bilan, katta bastakorlik maktablarini biz yoshlarga, o'zbek xalqimizga qoldirdilar. Bu maktab, bu yo'nalish asosida biz ijod ahli ham o'rganib, shogirdlarga o'rgatib, “Ustoz-shogird urfi” asosida o'zbek bastakorlik ijodini yanada boyitib, milliy musiqamizni

yana uzoq yillar, asrlar osha yashashiga, xalqimizning boy musiqiy merosini gullab, yashnashi, bu oltin merosimiz orqali, dunyo xalqlarini o'zaro ahillikda, do'stlikda, birdamlikda, hayot kechirishlariga, yurtimizdan yetishib chiqayotgan yosh iste'dodlar ham, o'z bastakorlik ijodlari bilan ko'priq vazifasini o'taydi degan umiddaman. Bu maqolamni yozishdan maqsadim ham shu.

Kalit so'zlar: Bastakorlik, maqom, "Ustoz-shogird urfi", Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, Katta ashula, Zikri Ushshoq, Qadimgi Ushshoq, Umurzoqpolvon Ushshog'i, oltin meros, o'lmas durdona.

Annotation

Uzbek composer creativity, based on our traditional maqoms such as Shashmaqom, Khorezm Maqoms, and Fergana-Tashkent Maqom styles, finds its scientific grounding in this article. Initially, in the late 19th and early 20th centuries, pioneers like Ota Jalol Nosirov began their compositional work based on maqoms. His students, such as Hoji Abdulaziz Rasulov, used elements from various maqoms—like Ushshoq, Uzzol, Avji Zebopari, Avji Turk, and Avji Muhayyari Chorgoh—which are integral parts of the vocal compositions within these styles. They went on to establish their own schools of composition.

Following in the footsteps of these great masters, the renowned singer and composer Fattohkhon Mamadaliyev also left behind a rich legacy of compositional works and founded major schools of musical thought for the youth and the Uzbek nation. Based on this direction and tradition, we as creators continue to learn, pass on this knowledge to students, and enrich Uzbek musical composition. Through the "Ustoz-shogird urfi" (Master-apprentice tradition), we strive to ensure that our national music lives on for many generations to come.

This golden heritage not only strengthens our national identity but also serves as a bridge for intercultural harmony, friendship, and unity across nations. I believe that

the young talents emerging from our country will also continue this tradition with their own compositions, contributing to global understanding. That is the main purpose of writing this article.

Keywords:

Composition, Maqom, “Ustoz-shogird urfi” (Master-apprentice tradition), Shashmaqom, Khorezm Maqoms, Fergana-Tashkent Maqom styles, Katta Ashula, Zikri Ushshoq, Qadimgi Ushshoq, Umurzoqpolvon’s Ushshoq, golden heritage, immortal masterpiece.

Insoniyat tarixida, kundalik hayotida shundayin bebaho ma’naviyat durdonalari mavjudki, bularga na davr beshavqatligi na asr suronlari, hatto muayyan mafkuraviy tazyiqlar ham ta’sir ko’rsata olmaydi. O’zbek xalqining ana shunday umrboqiy, dunyoda tengi yo’q ma’naviy bisotlaridan biri, shubhasiz milliy bastakorlik ijodi bo’lib, u shu soha mutaxasislari tomonidan ilgari surilgan taxminlarga ko’ra bir yarim – ikki ming yillik tarixni o’z ichiga oladi.

Sof o’zbek milliy bastakorlik ijodiyoti XX asrda o’nlab mashhur va taniqli san’atkorlar turli tashkilot va muassasalarda mehnat faoliyatini olib borib, barakali ijodi bilan xalqimiz ma’naviy - musiqiy hayotini jo’shqin, mazmundor, rango-rang bo’lishi uchun baholi qudrat xizmat ko’rsatgan atoqli san’at ustalaridan:

H.A.Rasulov, Sodirxon Hofiz, J.Sultonov, T. Jalilov, Y. Rajabiy, I. Ikromov, F. Sodiqov, K.Jabborov, S. Kalonov, N.Hasanov, K.Otaniyozov, G’. Toshmatov, M.Murtazoyev, M. Mirzayev, O.Hotamovlar qatorida atoqli xonanda va bastakor O’zbekiston xalq hofizi Fattohxon Mamadaliyevning ham ulushi salmoqli bo’lgan.

O'zbek bastakorlik ijodiyoti masalalari to'g'risida so'z borar ekan, bu ijodiyot masalalarini maqomlar bilan bog'lamaslikning hech ilojisi yo'q. Jumladan, O'zbekiston hududida Buxoro maqomlari - yoki Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg'ona - Toshkent maqom yo'llari turkumlari uzil-kesil shakllangan.

Bu o'zbek maqomlari XX asrga kelib, ommabop qo'shiqchilikka ham, tomoshabop teatr musiqasiga ham, an'anaviy bastakorlik ijodiga ham, navqiron kompozitorlik yo'nalishidagi izlanishlarga ham mustahkam poydevor yohud ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan. Atoqli maqomdon ustoz Ota Jalol Nosirov (1845-1928) ning atigi 16 yoshidan Buxoro amirligi saroyida bosh hofiz bo'lishi bilan birga yoshligidan "Shashmaqom" ni mukammal talqin qilib, hatto uning tarkibiga o'zi ijod qilgan bir qator ashula (Segoh maqomidagi " Savti Jaloliy " singari) yo'llarini, turkumni

kiritgan. Buxoro amirligi va Qo'qon Xonligidan farqli o'laroq Xiva xonligida ayniqsa, taxtda taniqli shoir (taxallusi- Feruz) va musiqa san'ati, xususan maqomlar bilimdoni Muhammad Rahim (Feruz) Soniy o'tirgan (1863- 1910)

yillari bastakorlik ijodi taraqqiyotiga katta o'rin ajratiladi. M.B.Rahmono'g'li va M.Y.Devonzodalarning " Xorazm musiqiy tarixchasi" ilk nashri eski o'zbek tilida (1925-yil Moskva; Yangi nashri; Toshkent -1998-yil nashrga tayyorlovchi B. Matyoqubov) kitobida M.R.Soniyning Shashmaqomning cholg'u yo'llariga jami 13 ta nag'ma bog'laganligi haqida aytib o'tilgan. Xuddi shu kuzatilayotgan davrga dastlab Samarqand vohasida, keyinchalik esa butkul Yaqin va O'rta sharq mamlakatlarida tanilgan Benazir hofiz – bastakor H. A. Rasulov (1852-1936) ijrochilik va ijodchilik faoliyati katta ahamiyatga ega. Uning yaratgan ashulalari quyidagilardir: " Qurbon o'lam", " Bozurgoniy", "Beboqcha", " Guluzorim", ayniqsa, " Samarqand ushshog'i I, Samarqand ushshog'i II" lardir. Bozurgoniy haqida Ishoq Rajabov. Sharq musiqa atamalarining qisqacha lug'ati. Qo'lyozma. T.G'ofurbekov va R.Yunusovlarning maxsus tahririda. 28 - betida shunday deyiladi: "Bozurgoniy" – maqom uslubida yaratilgan Ufar doira usulida ijro etiladigan mashhur ashula yo'llaridan biri. Hoji Abdulaziz qayta ishlagan va Zebopari avjini kiritgan". H.A.Rasulovning serqirra ijodiy tafakkuri qamrovidagi eng mustaqilona va badiiy yetuk asarlardan yana biri, shubhasiz "Guluzorim" ashulasidir. Atoqli maqomshunos - olim Ishoq Rajabov Guluzorim ashulasiga shunday nisbat bergan.¹ " Rost maqomidagi " Savti ushshoq" ohanglari bilan payvandlash hamda Turk avjini ulab ketish benihoyat mushkuldir. Birgina asar yaratilishida, Hoji Abdulaziz ne-ne meros qatlamlariyu, ne-ne shakl va uslublarni

¹ Ishoq Rajabov. Sharq musiqa atamalarining qisqacha lug'ati... 39-bet

uyg'unlashtirgan". Bu natijalarga erishish uchun albatta bastakordan ulkan mehnat, tajriba, shijoat, ustozlardan olingan bilim – ko'nikmalar talab qilinadi. Yuqorida nomi zikr etilgan ustozlar izidan borib, bebaho maqom mulkini o'zida jo qilib, boyita olgan, izlanuvchan bastakor, O'zbekiston xalq hofizi, professor Fattohxon Mamadaliyev (1923-1999) maqom san'ati va ta'limi rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. U 7-8 yoshlaridanoq o'sha davrning taniqli ijrochilari Umrzoq Polvon, Ro'zimatxon Isaboevlarning etagidan tutdi. Keyinchalik Y. Rajabiy, T.Jalilov, K.Jabborov, G'.Toshmatovlar unga ustozlik qilib, professional ijodga qadam qo'yishida katta ko'mak berishdi. 1984-yildan e'tiboran F. Mamadaliyev muallimlik ishiga taklif etgan poytaxt konservatoriyasining sharq musiqasi kafedrasida, shuningdek, O'zbekiston bastakorlar uyushmasi bilan yaqin hamkorlikda ish tutdi. Ko'plab ulug' ustozlar ta'limini olgan ustoz Fattohxonning qimmatli kasbiy fazilatlaridan yana biri bu maqom ashula yo'llarida ovozga "yetakchi" tanbur hamda Sharq ilmida "mukammal" hisoblangan g'ijjak cholg'ularida mohirona jo'r bo'lishida deyishimiz mumkin. Uning hofizlikdan kelib chiqqan aruz she'riyati ixlosmandligi keyinchalik maqom kuylariga g'azallarni mohirona bog'lab, ko'nikmalarni mufassal o'zlashtirishda qo'l keldi. Ustoz qalamiga mansub g'azallarning soni yuzdan ortiqdir. F.Mamadaliyevning turkumli maqom yo'llari borasidagi bastakorlik ijodiy yo'llari "Miskin"dan boshlanib, shundan so'ng, "Munojot", "Ushshoq", "Nasrullovi", turkumlariga murojaat etib, ayrimlarini qisman to'ldirdi va qayta ishladi. 1993-yilning 1-yarmida "Miskin" hamda "Munojot" turkumlarining taqdimoti suhbatli musiqiy teleko'rsatuvlar shaklida bo'lib o'tgan edi. Unda ustoz rahbarligidagi Sharq musiqa kafedrasida talabalar ansambli salkam 32 daqiqali "Munojot I-V" turkumini to'raligicha puxta o'zlashtirgani ma'lum bo'ldi. Bu o'rinda F.Mamadaliyevning tayyorlagan "Munojot" ashula yo'llari muhokamasida qatnashgan Abdurahim Hamidovning quyidagi fikrlari e'tiborlidir: "Maqom turkumlarini ham, cholg'u va ashula turkumlarini ham kimdir qachondir shu shakllarga tushirgani shubhasiz. Qolaversa, bir kuy negizida turkum yaratish - bastakor tajribasiga, ustaligiga bog'liq. Bu turkumning tabiiy chiqishi – deb yakunladi o'z fikrini taniqli sozanda, Shashmaqomdan ko'ra ko'proq Farg'ona- Toshkent maqom yo'llari rejalaridan foydalanilganidan.² 1980-yillar oxiri 90- yillar boshlariga kelib, ustoz bastakor F. Mamadaliyev unutilgan maqom ashulalaridan uchtasini birin-ketin to'liq tiklashga muvaffaq bo'ldilar. Bu ushshoqlar turkumi andijonlik ilk ustoz Umrzoq Polvon Saydalidan meros bo'lib qolgan ushshoqlar edi. Bular: "Qadimgi ushshoq", "Umrzoq Polvon ushshog'i", "Zikri ushshoq"lardir. Y. Rajabiy Farg'ona-

² "Munojot" turkumi teleko'rsatuvi senariysi, 1993-yil 27-may

Toshkent maqom yo'llaridan to'plab notaga olgan "Ushshoq", "Qashqarchai ushshoq" kabi ashulalar Shashmaqom ashula bo'limi ikkinchi guruh sho'balarining turkumlanish andozasi nuqtayi nazaridan yondashilsa unda bir qator shahobchalar yetmaydi. Bu esa ustozning nazariga tushadi va bu "noto'liq turkumlik" ni tiklash uchun ijodiy izlanishga kirishadi. Bu masalada ustoz bastakorning : " Men "Ushshoq" ning qashqarchasiga tayangan holda uning savtini, talqinchasini, soqiynoma va ufarini tiklashga urindim". 1995-yil esa "Nasrullovi" mumtoz cholg'u yo'llari ustoz bastakor tomonidan ashulaga aylantirildi. Maqom turkumlarini tiklash, qayta ishlash uchun katta tajribaga ega bo'lgan ustoz bastakor ushbu yo'nalish bo'yicha sof mualliflik darajadagi ijodkorlikda ham o'zini sinab ko'rishga jazm etadi. Bu harakatlar natijasida besh qismli " Savti Fattohxon" nomli butkul yangi turkum vujudga keladi. Bundan tashqari F. Mamadaliyev bastalagan ko'plab ashulalar orasida: "Intizor"(Ulfatyi), "Oqibat", "Sog'indim", "Falak", "Mehmon", "Judo keldi", "Yuzin hajrida" (Nodira g'azallari); "Ahd qildim" (Muqimiy so'zi); "Janonim mening" (Hayratiy so'zi); "Orzu" va " Dehqonlarim" (V. Sa'dulla g'azali); "Kalomingdan" va "Dilkusho" (H.Azimov so'zi); " Ko'ngil" va " Sirri ishqim" (H. Yahyoev so'zi) kabi ko'plab yaratgan ashulalari o'zining har tomonlama komilligi bilan biz shogirdlaru – shinavandalar qalbini yoritib kelmoqda. Albatta bu bejizga emas. Chunki bunday mukammal ashulalarni yaratish uchun ulkan ilm, chuqur falsafa, katta hayotiy tajriba, asosiysi musaffo qalb egasi bo'lish zarur. Yuqoridagi sifatlarning bari, ziyodasi bilan ustoz bastakor F.Mamadaliyevda mavjud edi. Bu ustozlarimizning yo'llarini o'z bastakorlik ijodlari bilan munosib davom ettirib o'tgan ustozlarimizdan: O'. Rasulov, M.Tojiboyev kabi zabardast ustozlarimizning yozib qoldirgan durdona asarlari hamda hozirda ham ijod qilib kelayotgan, atoqli san'atkorlarimiz A.Ismoilov, E.Ro'zimatov kabi ko'plab bastakor va hofizlarimizning bastakorlik ijodlari biz yosh avlod uchun dasturul-amal bo'lishi lozim.

Asl bastakor birinchi o'rinda yaxshi so'z topib, keyin usulga solib, tanlagan she'riga kuyni jo qilsa, asosiysi o'z xalqi bastakorlik ijodiyu - musiqasini qadrlab ular asosida kuy - qo'shiq, ashulalar yaratsa, o'shandagina yuqorida nomlari keltirilgan ustozlar kabi xalq qalbidan joy oladi. O'zbek xalqining ulkan, asrlarga tatigulik bastakorlik ijodiy merosini chuqur mehr bilan o'rganib, turli xalqlarning musiqasiga suyanmasdan asl durdona asarlarni yaratish biz shogirdlarga ustozlarimizdan merosdir. O'zbek bastakorlik ijodiyoti masalalari F.Mamadaliyevdek serqirra bastakorlarning ijod yo'llari bilan o'z yechimini topaveradi. Bu ustozlar yo'llarini munosib davom ettirishimiz uchun tinimsiz o'z ustimizda rejali ishlashimiz va sohasini mukammal biladigan, shogirdlaridan bor bilimlarini ayamay o'rgatadigan ustozlar etagini mahkam tutishligimiz joiz.

Xulosamni Hazrat Navoiyning zamondoshi va do'sti Husayn Voiz Koshifiyning shunday ibratomuz fikrlari bilan yakunlayman.

Kimnikim ustodi yo'q, ham ishin bunyodi yo'q,

Ma'ni yo'lida g'aribdir, kimnikim ustodi yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati

1. Фаттоххон Мамадалиев. «Миллий мусиқа ижрочилик масалалари» “ Yangi asr avlodi ”. Тошкент. 2001й.
2. Равшан Юнусов. « Фахриддин Содиқов » “ Unesco ”. Тошкент.2005 й.
3. Тўхтасинбек Ғофурбеков. « Сайланма » “ Musiqa ”.2009.Т.
4. Отаназар Матёкубов. Мақомот. “ Musiqa ”.2004.Т.
5. А.Ҳ.Жабборов. « Ўзбекистон бастакорлари ва мусиқашунослари » “ Yangi asr avlodi ”. Тошкент. 2004й.
6. Fattohxon Mamadaliyev. “ Intizoring eslagil ”. (Milliy ijrochilik masalalari va g'azallar). “Andijon nashriyot – matbaa” M.Ch.J. 2014-yil.
7. Darakchi N – 9 (779) 27.03.2014. Xotira: Qamariddin Shayxovning “ F.Mamadaliyevni vafotigacha qiynagan dard ” maqolasi.